

Andijon davlat chet tillari instituti, Gid hamrohligi, madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi

Egamberdiyeva Iroda Abduraximovna

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqola fitomorfik metaforalarning kognitiv xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Fitomorfik metaforalar — bu o'simliklar nomlari orqali ifodalangan metaforalardir. Maqolada turli badiiy matnlardagi fitomorfik metaforalarning kognitiv va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqola muallifi, Iroda Egamberdiyeva, fitomorfik metaforalarning milliy-madaniy tabiati, etnik xususiyati va kognitiv strukturasi haqida xulosalar beradi.*

Kalit so'zlar: *Fitomorfik metafora, kogeziya nazariyasi, lingvistik talqin, metafora turlari, semantik tahlil, o'zbek tili stilistikasi, obrazli ifoda, til birliklari, kontseptual metafora, o'simlik obrazlari.*

Inson bilmagan narsalarini bilgan narsalari asosida baholaydi va ularni qiyoslaydi. Demak, bilgan narsa ifodalovchisi bilmagan narsa haqidagi bilimlarni ifodalash, uzatish vositasi sifatida kognitiv jarayonda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda M.Minskiyning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli: "Metafora biror predmet yoki ob'ektni boshqa bir predmet yoki ob'ekt ko'zgasida ko'rishni ta'minlaydi. Bu esa bir sohada olingan bilim va tajribani boshqasini bilishga nisbatan qo'llash va undagi muammoni echishda asos bo'lib xizmat qiladi."

Bugungi kunda tilshunoslik o'z diqqatini tildagi inson omili masalalariga qaratmoqda. Bunda ikki holatni kuzatish mumkin:

- a) insonning lisoniy imkoniyatlardan foydalanish omili;
- b) lisoning inson sifat va xususiyatlarini ifodalashi.

Har ikki omil ham olam, shaxs va til mushtarakligini aks ettiradi. Bu esa “olamning lisoniy manzarasi” tushunchasining shakllanishi va rivojlanishiga turki bo‘lmoqda.

Lisoniy modelllar insonning borliqni kuzatishi va o‘z ongida aks ettirishi asosida yotadi, unda borliqning asosiy daxldor xususiyatlari yotadi. Asosiy xususiyatlar esa insonning milliy mental sifatlari bilan belgilanadi. Milliy mental sifatlarni tabiiy, tarixiy, diniy va madaniy omillar shakllantiradi.

Kognitiv tilshunoslik muammolari orasida shaxs masalasi alohida o‘rin tutadi. Zero, kognitizm borliqning inson tomonidan idrok etilishiga asoslanadi. Ammo bu jarayon turli til sohiblarida turlicha kechadi, ayniqsa bolalarda.

Aytilganidek, inson borliqni o‘z milliy “ko‘zi” bilan ko‘rar ekan, bunda milliy tafakkur milliy nominasiyani vujudga keltiradi. Nominativ darajalanish ham o‘z o‘rnida ushbu holat bilan belgilanadi.

Milliy metaforik tizimda milliy nigohning yorqin namunasini kuzatamiz. O‘z tafakkur tarzi va dunyoqarashi asosida borliq hodisalarini va o‘z sifatlarini nomlashda inson o‘xshatish tamoyiliga tayanadi va bu fikrning yorqin, tiniq va ta'sirchan ifodalanishini keltirib chiqaradi. Biz quyida “inson” umumiy, makrokonseptsferasiga kiruvchi ichki, turli mikrokonseptlarning ifodalanishida fitometaforik vositalarning roli va qiymati masalasiga to‘xtalamiz.

Inson yaxlit va murakkab xilqat. Unda jism, ruh (ma'naviyat) va aql mushatarak holda mavjud. Shu boisdan “inson” makrokonsepti, avvalo, “jism”, “ma'naviyat” va “aql” hamda ular asosidagi “munosabat” nisbiy mikrokonseptlariga bo‘linadi. Quyida ularning har birining ichki konseptosferasini kuzatamiz.

“Jism” konsepti tarkibiy qismlari:

1. “Tashqi ko‘rinish” konsepti
2. “Sog‘liq” konsepti
3. Tananing “jism” konsepti

“Ma'naviyat” konsepti:

1. “Vijdon” konsepti
2. “Iymon-e'tiqod” konsepti

3. “To‘g‘rilik va egrilik” konsepti
4. “Mehnatsevarlik/dangasalik” konsepti
5. “Qanoat va sabr-chidam” konsepti
6. “G‘urur” konsepti
7. “Kibr” konsepti
8. “Nafs” konsepti
9. “Saxovat” konsepti
10. “Ilm-hunar” konsepti
11. “Tejam” konsepti
12. “Mardlik” konsepti

“Aql” konsepti quyidagi konsept sferasidan tashkil topadi:

1. “Donolik” konsepti
2. “Nodonlik” konsepti va h.”Munosabat” konseptosferasi quyidagi

mikrokonseptlardan tashkil topgan:

1. “Yaxshilik/yomonlik” konsepti
2. “Muhabbat” konsepti
3. “Nafarat” konsepti
4. “Ishonch/ishonchsizlik” konsepti
5. “Baxillik/saxiylik” konsepti
6. “Rostgo‘ylik/yolg‘onchilik” konsepti
7. “Fidoyilik” konsepti
8. “Ayyorlik” konsepti va h.

Albatta, “ma’naviyat”, “aql” va “munosabat” konseptlari o‘zaro zich bog‘langan bo‘lib, ular tarkibiga kiruvchi ayrim mikrokonseptlar serqirraligi va, shu boisdan boshqa guruh konseptosferasiga daxldorligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, ular “jism” konseptosferasi bilan ham tutashib ketadi. Zero, turli konseptosfera tarkibiga kiruvchi mikrokonseptlar orasiga keskin chegara qo‘yish inson konseptining yaxlitligiga soya soladi. Inson haqidagi bilimlarimiz yaxlit konseptual xarakterga ega ekan, ularni ayrim qirralari o‘zbek xalq maqollarida qay tarzda ifodalanishi hamda unda fitometaforik vositalar qanday rol o‘ynashi haqida quyida ayrim mikrokonseptlar misolida fikr yuritiladi, chunki maqollar

ushbu xalqning ming yillar davomida yig'gan tajribasining natijasi, konseptidir.[1.6]

“Mehnatsevarlik/ishyoqmaslik” konseptini voqelantirishda fitometaforik vositalarning roli - Insonning shakllanishidagi bosh omil sifatida uning ongli, yaratuvchilik mehnati bo'lganligi ma'lum. Shu boisdan barcha millatlarda mehnatsevarlik insonning asosiy fazilati, ishyoqmaslik esa insoniy qusurlardan hisoblanadi. Shu boisdan xalqda “Ariq qazimasang, otizga suv chiqmas”, “Arpa ekkan arpa olar, bug'doy ekkan bug'doy olar”, “Barvaqt qilingan harakat - Hosilga berar barakat”, “Bahorgi beg'amlik — kuzgi parishonlik”, “Bog'ni boqsang, bog' bo'lar, Botmon-dahsar yog' bo'lar, Boqimsiz bog' tog'bo'lar, Yurak-bag'ring dog' bo'lar” kabi minglab maqollar bor.

Aytilganidek, mehnatsevarlik tushunchasi umuminsoniy qadriyatlardan hisoblanadi. Quyidagi ingliz tilidagi maqollarni kuzating: “Adversity, Many can bear, but few contempt” (Tarjimasi: Ko'pchilik qiyinchilikka chidaydi, ammo kamdan-kam odam uni pisand qiladi. O'zbekcha muqobili: Qiyinchilik mehnat bilan yengilar), “All is over (but) the souting” (Tarjimasi: Bari ortda qoldi, vaqt shodlikka etdi. O'zbekcha muqobili: Mehnat qancha og'ir bo'lsa, keti shuncha shirin bo'ladi), “Brain in the devil's workshop, An idle” (Tarjimasi: Dangasa aqli — shayton ustaxonasi. O'zbekcha muqobili: Ishchanlik to'rga tortar, Yalqovlik go'rga tortar) kabi.[2.5]

Xalq maqollari mehnatsevarlik konseptining muhim jihatlarini, aniqrog'i, barqaror va ko'p asrlik xususiyatlarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, mehnatsevarlik konsepti dastlab quyidagi tarkibiy qismlarga ega bo'lgan freymdan tashkil topadi:

- 1) mehnat sub'ekti;
- 2) mehnat quroli;
- 3) mehnat ob'ekti;
- 4) mehnat harakati.
- 5) mehnat natijasi.

O'z o'rnida ularning har biri o'ziga xos “bilim majmuyi” — konsept sifatida namoyon bo'ladi. Xalq maqollarida mazkur freymning biror uzviga

alohida e'tibor qaratilgan fitometaforik vositalarni kuzatish mumkin. Quyidagi maqolga murojaat qilaylik:

Bog'ni boqsang, bog' bo'lar,

Botmon-dahsar yog' bo'lar.

Boqimsiz bog' tog' bo'lar,

Yurak-bag'ring dog' bo'lar.

Bog' so'zi fitonimik leksika tarkibiga kiradi. Maqolda freym tarkibiga kiruvchi mehnat ob'ekti tavsifi asosida mehnatsevarlik ulug'langan. Maqol mazmuni quyidagicha izohlangan: ("Dahsar" — forsha "daxsir" — turkcha ifodasi bo'lib, og'irlik o'lchovi "sir"ning o'n karra miqdori. "Sir" Eronda 75 grammga teng keladi. Buxoro, Samarqand va O'rta Osiyoning boshqa joylarida botmonning to'rtidan bir qismini tashkil qilgan. Xorazmda "o'nsir", "o'nsari" yuritilgan va 5 kg.ga to'g'ri kelgan. Var.: "Bog'ni boqsang bog' bo'ladi, Daromading tog' bo'ladi"; "Qarasang — bog', qaramasang — tog"; "Qarasang, qand yeysan, qaramasang, pand yeysan"; "Boqsang, butun bo'lur, Yoqsang o'tin bo'lur" (bunda ham mevali daraxt nazarda tutilgan). "Bog'bonning mehnati ko'p, Mevasi — xo'b"; "Bog' jamoli — bog'bondan"; "Bog'i borning boli bor".[3.4]

Maqolning zohiriy va botiniy mazmuni mavjud bo'lib, bunda uning zohiriy jihati ma'lum darajada izohlangan. Ammo maqoldan maqsad faqat boqqa ishlov berib, yaxshi natija olishni emas, balki umuman "mehnat ob'ektini faqat mehnat ijobiy va foydali tomonga o'zgartirishi va mehnat qiluvchi o'zining yoki jamiyat manfaatlari yo'lida undan samarali foydalanishi" mumkinligi haqida umumlashma xulosa xarakteridagi ma'lumotni berishdir. Undan chiqadigan ushbu umumlashma xulosa mehnatsevarlik konseptini to'ldirishga xizmat qiladi. *Bog'* fitometaforasi ushbu o'rinda "mehnat ob'ekti" muvaqqat semantikasiga egaligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, uni oila, davlat, mamlakat, iymon, ruhiyat, aql, inson tanasi kabi qator ma'nolarda ham tushunish mumkin. Zero, tarbiya natijasida, mashaqqat evaziga yaxshi natija berish mumkin bo'lgan barcha hodisaga nisbatan uni qo'llash mumkin. Umuman olganda, maqollarni metodologik xulosa sifatida tushunish maqsadga muvofiq. Boqsang birligi ham metaforik qo'lanishda bo'lib, u yuqoridagi freymning "mehnat harakati" uzvining

namoyandasidir. Maqolda bog‘ va boqmoq leksik birliklari sintagmatik, bog‘, tog‘, yog‘, dog‘ birliklari esa paradigmatic qurshov tashkil etgan. Ular sirasida asosiy diqqat mehnat ob’ektiga qaratilganligi uchun bog‘ fitometaforasi maqol matnini uyushtiruvchi yadro birlik maqomidadir. Freymning ikkinchi zinasida mehnat ob’ekti uzvini tavsiflovchi boqimsiz va boqimli birliklari anglatayogan tushunchalar yotadi. Ular bog‘ fitometaforik konseptning tarkibiy uzvlari sifatida namoyon bo‘ladi. Tog‘ va dog‘ unga nisbatan qo‘llangan harakat natijasini ifodalovchi ob’ekt sifatida mazkur fitometaforik birlik ma’nosini muayyanlashtiruvchi vositalar sifatida namoyon bo‘ladi.[4.2]

“**Daraxatdan meva** olaman desang, **Niholligidan** parvarish qil”, “Mehnat qilmay rohat ko‘rmas, **Urug‘ sepmay** ekin o‘rmas”, “Ola ekkan oz olar, Rosa ekkan soz olar”, “Savr kirdi, **ekinlarga** davr kirdi”, “Ter to‘kib mehnat qilsang, yerdan hatto zar **unar**”, “Ter to‘kib sochsang urug‘, Yer seni qo‘ymas quruq”, “**Ekin** ekkan — **tekin** o‘rar”, “**Ekinni** erta ekkan, **Hosilni** erta o‘rar”, “**Eksang, o‘rasan**”, “Harakating erta bo‘lsa, Kuzda erta o‘rasan”, “Mehnatingni halol qilsang, Huzurini ko‘rasan”, “**Hosiling** kam bo‘lsa, havodan ko‘rma” kabi maqollarda qo‘llangan (ajratilgan) fitometaforik vositalar mehnatsevarlik konseptining turli qirlarini yoritishga xizmat qilgan.

Foydananilgan adabiyotlar:

1. Abdurahimovna, E. I. (2024). Metafora-til, madaniyat va ma’naviyat ko‘zguisi. *Farg‘ona davlat universiteti*, (3), 106-106.
2. Abdurahimovna, E. I. (2023). Culture of relationships in Uzbekistan: nurturing traditions of hospitality and respect. *O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(25), 192-199.
3. Kosimova, M. (2024). NATIONAL-CULTURAL AND ETYMOLOGICAL ISSUES OF SPECIAL TERMS. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(3), 577-581.
4. AHMEDOV, A., & SHAXRIZODA, X. (2024). THE ENGLISH EFFECT. *Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi*, 7(3), 18-23.

5. Umidjon, M. (2023). IN DIFFERENT LANGUAGES SYSTEMS, THE LINGUACULTURAL AND GENDER RESEARCH OF THE CONCEPT OF HOSPITALITY. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 2(11), 52-56.